

**Maxmatqobil Obilqosimov Jizzax politexnika instituti, "Ijtimoiy fanlar"
kafedrasi katta o'qituvchisi.**

**KITOB – INSON HAYOTIGA MAZMUN BAXSH ETUVCHI SAODAT
MANBAI**

Annotatsiya: Maqolada insonni ma'naviyatga yetaklovchi bilim manbai bo'lgan kitob to'g'risida fikr eritiladi hamda yurtimizda kitobxonlikni rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Kitob, kitobxonlik, mutolaa, adabiy muhit, ta'lim, tarbiya, ma'naviy ehtiyoj, intellektual bozor.

**Makhmatkobil Obilqosimov is a senior lecturer at the Department of
"Social Sciences" of the Jizzakh Polytechnic Institute.**

**BOOKS - A SOURCE OF HAPPINESS THAT GIVES CONTENT TO
HUMAN LIFE**

Abstract: The article discusses the idea of a book as a source of knowledge that leads a person to spirituality, and discusses the reforms and work being carried out to develop reading in our country.

Keywords: Book, reading, reading, literary environment, education, upbringing, spiritual need, intellectual market.

“Dunyodagi har qaysi davlat, har qaysi xalq birinchi navbatda o'zining intellektual salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan qudratlidir. Bunday yengilmas kuch manbai esa avvalo insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyoti – kitob va kutubxonalarda”.

Shavkat Mirziyoyev

Kitob — aql qal'asidir. Kitob — xazina, u cheksiz bilim manbai. Insonning hayotda undan yaqin hamrohi, do'sti, maslahatchisi yo'q. Negaki, u aqlni peshlovchi qayroqdir. Kitobsiz dunyo hidsiz gulga o'xshaydi.

Kitob – umr yo‘llarini yorituvchi so‘nmas nur, inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbai, unga har qanday vaziyatda ham hamroh bo‘luvchi sodiq do‘st. Insonning ma‘naviy kamolotini ta‘minlashda kitob singari kuchli qudratga ega vosita yo‘q. Shu bois azal-azaldan ma‘rifat peshvolari, ahli donishlar butun insoniyatni kitob o‘qishga, undan ilmu odob sirlarini o‘rganishga chorlab kelishgan.

Kitobxonlik — ma‘naviy ehtiyoj. Kitobxonlik oiladagi muhitga ham bog‘liq. Ma‘rifatli oilalarda kitobga e‘tibor farzandlar tarbiyasida qo‘l keladi. Farzandini kitobga qiziqtirmagan, o‘qishga o‘rgatmagan ota-ona, aslida, uni savodsiz qilib tarbiyalagan bo‘ladi. Darhaqiqat, kitob insonni yerdan ko‘kka ko‘taruvchi, uning ma‘naviy quvvatini oshiruvchi buyuk kuchdir. U insoniyatning tarixiy xotirasi, ma‘naviy-ma‘rifiy olami, ilmiy zaminini mustahkamlovchi, kelajakni yorqin ko‘rsatib borishga qodir mash‘ala hisoblanadi.

Bugun jamiyatimizda kitobxonlikni rivojlantirish, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida mutolaa madaniyatini rivojlantirishga davlat tomonidan alohida e‘tibor berilib, ko‘plab samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Prezidentimizning 2017 yil 12 yanvardagi «Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida»gi farmoyishi, 2017 yil 13 sentabrdagi «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida»gi va 2018 yil 12 maydagi «Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida yoshlar o‘rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to‘g‘risida»gi qarorlari asosida mamlakatimizda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan bir qator tashkiliy-amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilishi jamiyatda kitobga bo‘lgan munosabatning ijobiy tomonga o‘zgarishiga zamin yaratdi.

Xususan, oliy ta‘lim tizimida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish borasidagi ishlar vazirlik rahbariyatining doimiy e‘tiborida bo‘lib kelayotganini

ta'kidlab o'tish joiz. «Kitob tafakkur qanotidir», degan edi alloma adibimiz Oybek. Kitob o'qigan inson, qaysi sohada ishlamasin, to'g'ri fikrlash, oqu qorani ajratish, murakkab vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Bundan tashqari, nutqi ravon bo'ladi, odamlarni o'z ortidan ergashtira oladi. Mutolaaga qiziqish susayishi, o'z navbatida, aholi savodxonligi darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatib, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishi uchun katta tahdidlardan sanaladi. Chunonchi, taraqqiy etgan davlatlarda bu muammoning yechimini hal etish bo'yicha bir qator aniq chora-tadbirlar belgilanmoqda. Bunda asosan kitobni sevish, fuqarolar o'rtasida mutolaa madaniyatini manzilli qo'llab-quvvatlash hamda rivojlantirish, noshirlik faoliyatini takomillashtirish, jamiyatning intellektual, ma'naviy va madaniy ehtiyojlariga to'liq javob beradigan kitob bozorini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Binobarin, mamlakatimizda ham yoshlar o'rtasida kitob mutolaasini targ'ib etish, ularga qiziqtirish, oshno qilib tarbiyalash borasida bir qator amaliy tadbirlar qilinmoqda. Prezidentimizning 2017 yil 13 sentabrdagi «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida»gi Qarori bu borada yuzaga kelgan muammolarni kompleks hal qilishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Butun mamlakat bo'ylab kitob mutolaasiga rag'batni oshirish, kitobxonlar safini yanada kengaytirish uchun yana qanday ishlar amalga oshirilishi kerak? Nima qilinsa yoshlar, bolalar kitob o'qishga jon-jahdi bilan intiladi?

Buning uchun nimalarni amalga oshirish lozim:

Birinchi navbatga kitobga olib boradigan yo'llar yaqin va oson bo'lishi kerak. Ta'lim muassasalarida kutubxonalar iloji boricha barchaning e'tibori tushadigan va o'quvchi hamda talabalarga yaqin joyda bo'lishi lozim.

Ikkinchidan, kutubxona xodimlariga nisbatan, kutubxonachilarning esa o'z ishiga nisbatan munosabatini o'zgartirish kerak. Bolaning emas, komissiyaning ko'nglini olish, ularga yomon ko'rinmaslikka ko'proq e'tibor qaratmasdan, bor

e'tiborini bolalarga qaratishi lozim. Kutubxonachi o'z zimmasiga yuklatilgan tashkiliy ishlardan ortib kitob ham o'qishi, mutolaani jondan sevishi kerak.

Uchinchidan, bola mansub bo'lgan jamiyat, muhit kitob o'qishga moyil bo'lishi ham muhim. Kitob o'qiladigan xonadonlarda mutolaaga mehr qo'ygan bolalar kamolga yetadi. Albatta, bu mutlaq haqiqat emas. Kitobi yo'q uylarda ham kitobxonlar bor. Ammo hamma joyda, har doim ham emas. Aksariyat oilalarda vaziyat taxminan quyidagicha: ona kuni bo'yicha uy-ro'zg'or ishlari bilan band, ozgina bo'sh vaqt topdi deguncha qo'shni ayollar bilan hasratlashishga oshiqadi. Televizor, serial ko'rish, to'y-ma'rakalarda qatnashish va boshqalarga ajratilgan vaqt kitob o'qishga yetmaydi. Ota esa kuni bo'yi ishda bo'lib, kechqurun kelib ovqatlanadiyu, bir oz televizor ko'rgandek bo'lib, so'ngra uxlashga kirib ketadi. O'qilgan kitoblarni muhokama qilish, qanday kitoblarni o'qish bo'yicha maslahatlar berish, afsuski, oilalarda juda kam uchraydigan holat. Ommaviy ravishda: xiyobonlarda, transport vositalari, kutish zallari, bekatlar, shifoxonalarda kitob o'qilishi haqida gapirmasak ham bo'ladi. Qaniydi bunday joylarda shundoqqina qo'l uzatsang yetadigan yerda kitoblar tursayu, bo'sh vaqtingda mutolaaga berilsang. Bu so'zlar aslo shaxsiy tasavvurim mahsuli emas. Ko'plab mamlakatlarda shu kabi ijtimoiy loyihalar yo'lga qo'yilganki, odamlar o'qib bo'lgan kitoblarini hamma uchun ochiq va bepul bo'lgan maxsus javonlarga keltirib qo'yadi. U yerdagi istagan asarini olib ketishi mumkin. Marhum adibimiz Asqad Muxtor aytganidek, kitob – boylik, sotib olingani emas, balki o'qilgani. Masalaga mana shu nuqtadan qarasak, bu bebaho boylikni hamma bilan bo'lishish mumkin.

Bolalarni kitobga qiziqtirishda kattalarning xabardorligi ham muhim ahamiyatga ega. Bu haqda yuqorida kutubxonachilar misolida mushohada yuritgandek bo'ldik. Biroq pedagoglardan tashqari ota-onalar ham bolaga qanday kitob olib berishni bilishi kerak. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, ota-onalar majlislarida faqat moliyaviy masalalar emas, kitobxonlikni targ'ib qilish, sinflar kesimida bolalar yoshiga mos asarlar ro'yxati tuzilib, ota-onalarga tarqatilsa bo'ladi. Shu bilan birga, bolalarni kitob o'qishga qiziqtirish va bu

qiziqishlarni to'g'ri va samarali qondirish bo'yicha ham maslahat, tavsiyalar berilishi maqsadga muvofiq.

Kitobxonlikni targ'ib qilishda yangi nashr qilingan asarlar reklamasini keng yo'lga qo'yish, mutolaani ommalashtirish bo'yicha ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish ham katta ahamiyat kasb etadi. Qishloq va mahallalarda kitobxonlar klublarini tashkil etishni rag'batlantirish, bolalar uchun kitob kechalari, o'qilgan asarlar muhokamalari, sovrinli tanlovlarni tashkil etish, yozda salqin, qishda issiq, qulay mebellarga ega tinch va osuda o'quv zallari, kitoblarni ijaraga berish, qarzga yoki pulini bo'lib-bo'lib to'lash mexanizmlarini ishlab chiqish va amalga tatbiq etish, olis tumanlar, uzoq qishloqlarda kerakli kitoblarga buyurtmalar berish shoxobchalarini barpo etish ham mumkin. Xullas, o'ylasa, bosh qotirsa, muammoni ijobiy hal etishning minglab usullari yaratilaveradi. Modomiki, maqsad bolalarning kitobni ommaviy ravishda sevib o'qilishiga erishish ekan, bu yo'lda bor imkoniyatlarni ishga solish, jarayonni ortiqcha, keraksiz va faqat zarar keltirayotgan tashkiliy, ma'muriy to'siq va g'ovlardan xalos qilish, kitobning hammabopligini oshirish yo'llarini topaverish kerak.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentabrdagi «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida» qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 maydagi «Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to'g'risida»gi qarorlari.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 Yil 14 dekabrdagi 2020-2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash Milliy Dasturini tasdiqlash to'g'risida»gi Qarori.